

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan "BARQARORLIK KURSI" seminar trening aprel oyi

BAYONNOMASI

O'tkazilgan sana: 8-aprel 2026-yil

O'tkazilgan joy: kichik faollar zali

Seminar mavzusi: Barqaror arxitektura va yashil qurilish.

Qatnashdilar: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

KUN TARTIBI:

1. Barqaror arxitektura va yashil qurilish tushunchalari haqida ma'lumot berish.
2. Universitetda ekologik va energiya tejamkor qurilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
3. Talabalar va xodimlarning barqaror arxitektura loyihalaridagi ishtiroki.
4. Savol-javob va muhokama.

MUHOKAMA:

Seminar davomida barqaror arxitektura, yashil qurilish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va talabalarning ekologik va arxitektura tashabbuslarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. QS Barqarorlik reytingi indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni platformaga kiritish zarurligi ta'kidlandi.


Barqaror arxitektura — binolarni loyihalash, qurish va foydalanish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yo'nalishda energiya samaradorligi, tabiiy yoritish va shamollatish, ekologik toza hamda qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish muhim hisoblanadi. Barqaror arxitektura inson salomatligi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish bilan birga tabiiy resurslarni asrashga xizmat qiladi.

Yashil qurilish esa binolarni ekologik talablarga mos holda, energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalar asosida barpo etishni anglatadi. Bunda quyosh panellari, yomg'ir suvidan foydalanish tizimlari, issiqlik izolyatsiyasi, energiya tejovchi yoritish va aqlli boshqaruv texnologiyalari keng qo'llaniladi. Natijada energiya sarfi kamayadi, chiqindilar miqdori qisqaradi va binoning atrof-muhitga ta'siri minimallashtiriladi.

Barqaror arxitektura va yashil qurilish kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz va qulay yashash muhitini yaratishga yordam beradi. Bu yondashuv shaharsozlikda ekologik muvozanatni saqlash, yashil hududlarni ko'paytirish va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy barqaror qurilish texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda sog'lom va barqaror jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

QARORLAR:

1. Barqaror arxitektura va yashil qurilish bo'yicha seminar-treninglarni muntazam davom ettirish.
2. Talabalar va xodimlarning ekologik va barqaror qurilish loyihalaridagi faol ishtirokini oshirish.
3. QS Barqarorlik indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimli ravishda tayyorlab, platformaga kiritish.



Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna

Imzo: _____